

*Муратова Зберзият Тагировна
Преподаватель кафедры микробиологии, вирусологии и иммунологии
Супонова Холида Сухробовна
312-группа лечебного факультета
Самаркандский Государственный Медицинский Университет*

ОСОБЕННОСТИ ЗАБОЛЕВАНИЙ ЖЕЛЧЕВЫВОДЯЩИХ ПУТЕЙ У ДЕТЕЙ, ПЕРЕНЕСШИХ ВИРУСНЫЙ ГЕПАТИТ "А."

Аннотация: Вирусный гепатит А (ВГА) является распространенным инфекционным заболеванием среди детей, которое сопровождается нарушением функции печени. После перенесенного ВГА у детей повышается риск развития заболеваний желчевыводящих путей (ЗЖВП), что может привести к различным нарушениям в пищеварительной системе. Поэтому выявление специфических клинико-лабораторных признаков развития ЗЖВП у детей, перенесших ВГА, имеет важное значение.

Ключевые слова: Заболевания желчевыводящих путей, билиарная дискинезия, холецистит, холангит, дискинезия, холестаз, лабораторная диагностика, печеночные ферменты.

*Muratova Zberziyat Tagirovna
, Department of Microbiology, Virology and Immunology
Suponova Kholida Sukhrobovna
Group 312, Faculty of General Medicine
Samarkand State Medical University*

FEATURES OF BILIARY TRACT DISEASES IN CHILDREN WHO HAVE HAD VIRAL HEPATITIS "A"

Abstract: Viral hepatitis A (VHA) is a common infectious disease among children, accompanied by impaired liver function. After VHA, children have an increased risk of developing biliary tract diseases (BTD), which can lead to various disorders in the digestive system. Therefore, the identification of specific clinical and laboratory signs of the development of BTD in children who have had VHA is of great importance.

Keywords: Biliary tract diseases, biliary dyskinesia, cholecystitis, cholangitis, dyskinesia, cholestasis, laboratory diagnostics, liver enzymes.

*Muratova Zberziyat Tagirovna
Mikrobilogiya, virusologiya va immunologiya kafedrasi o'qituvchisi
Suponova Xolida Suxrobovna
Davolash fakulteti 312-guruh
Samargand Davlat Tibbiyot Universiteti*

"A" VIRUSLI GEPATITNI O'TKAZGAN BOLALARDA SAFRO YO'LLARI KASALLIKLARINING O'ZIGA XOS BELGILARI.

Anatatsiya : Virusli gepatit A (VGA) bolalar orasida keng tarqalgan yuqumli kasallik bo'lib, jigar faoliyatini buzilishi bilan kechadi. VGA o'tkazgandan so'ng, bolalarda safro yo'llari kasalliklari (SYoK) rivojlanish xavfi ortadi, bu esa ovqat hazm qilish tizimida turli xil buzilishlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, VGA o'tkazgan bolalarda SYoK rivojlanishining o'ziga xos klinik-laborator belgilarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Safro yo'llari kasalliklari, biliar disfunktsiya, xolesistit, xolangit, diskineziya, safro dimlanishi, laborator diagnostika, jigar fermentlar.

Virusli gepatit A (VGA) BJSST oldida turgan dolzarb muammolardan biri bo'lib, avvalambor, bu infeksiyaning tarqalishi bilan bog'liqdir: ya'ni 30% gacha bo'lgan rivojlangan davlatlar, rivojlanayotgan davlatlarning 100% mazkur xastalik bo'yicha giperendemik xudud hisoblanadi. Barcha o'tkir virusli gepatitlar orasida VGAning qiymati 50%ga teng, bu hamma virusli gepatitlar bilan kasallanishning yarmini tashkil etadi. Dunyo bo'yicha har yili 1,4 mln. odam o'tkir virusli gepatit A bilan kasallanadi. Ko'pgina hollarda gepatit A to'liq tuzalib ketadi va surunkali shaklga o'tmaydi. Biroq, kam hollarda og'ir asoratlar, masalan, fulminant gepatit (jigar yetishmovchiligi) rivojlanishi mumkin.

Gepatit A virusi (HAV) - Pikornaviridae oilasiga mansub kichik RNK virusi. U tashqi muhitda, jumladan, suvda va oziq-ovqatda uzoq vaqt saqlanib qolishi mumkin. Yuqish yo'llari:

Fekal-oral yo'l: eng keng tarqalgan yo'l bo'lib, bemor najasi bilan ifloslangan suv yoki oziq-ovqat iste'mol qilish natijasida yuqadi.

Kontakt-maishiy yo'l: shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilmaslik, iflos qo'llar orqali.

Jinsiy yo'l: kam hollarda, orqa jinsiy aloqa orqali.

Qon orqali: juda kam hollarda, parenteral yo'l bilan (in'ektsiya orqali).

Xavf omillari:

Sanitariya-gigiena sharoitlari yomon bo'lgan hududlarda yashash.

Toza ichimlik suvi ta'minotining yo'qligi.

Shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilmaslik.

Gepatit A bilan kasallangan odam bilan yaqin aloqada bo'lish.

Gepatit A ga qarshi emlanmaganlik.

Klinik ko'rinish:

Kasallikning inkubatsion davri (virus organizmga kirgandan kasallik belgilari paydo bo'lgunga qadar) o'rtacha 15-50 kun davom etadi. Kasallik belgilari yengildan og'irgacha bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda, ayniqsa bolalarda, kasallik simptomsiz kechadi.

Holsizlik va charchoq.

Ishtaha yo'qolishi.

Ko'ngil aynishi va qayt qilish.

Qorinning yuqori o'ng qismida og'riq.
Siydikning to'q rangga kirishi (pivo rangida).
Najasning rangsizlanishi (gil rangida).
Teri va ko'z oqining sarg'ayishi (sariqlik).
Tana haroratining ko'tarilishi (kamdan-kam hollarda).
Qichishish (kamdan-kam hollarda).

Diagnostika:

Anamnez (kasallik tarixi) va klinik belgilarga asoslanadi.
Qon tekshiruvlari:
Jigar fermentlari (ALT, AST) darajasining oshishi.
Bilirubin darajasining oshishi.
Gepatit A virusiga qarshi antitanachalar (IgM anti-HAV) aniqlanishi.
Davolash simptomatik bo'lib, organizmni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.
Dam olish va to'g'ri ovqatlanish (yog'li ovqatlardan saqlanish).
Ko'p suyuqlik ichish.
Jigar uchun zararli moddalardan (alkogol, dorilar) saqlanish.
Og'ir hollarda shifoxonada davolanish.

Oldini olish: Emlash: Gepatit A ga qarshi emlash kasallikdan himoya qilishning eng samarali usuli hisoblanadi. Shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish: Qo'llarni tez-tez sovun bilan yuvish, ayniqsa ovqatdan oldin va hojatxonadan keyin.

Toza ichimlik suvi iste'mol qilish: Faqatgina tozalangan yoki qaynatilgan suv ichish.
Oziq-ovqat mahsulotlarini yaxshilab yuvish: Mevalar va sabzavotlarni iste'mol qilishdan oldin yaxshilab yuvish.

Sanitariya-gigiena sharoitlarini yaxshilash: Kanalizatsiya tizimini yaxshilash va chiqindilarni to'g'ri utilizatsiya qilish.

Tadqiqot maqsadi: «A» virusli gepatit o'tkazgan rekonvalestsent bolalarda biliar tizim o'zgarishlariga xos klinik-laborator belgilarning o'ziga xos xususiyatlarini rekonvalestsentsiya muddatlariga mos ravishda o'rganish

Tadqiqot usullari: klinik, biokimyoviy, serologik, instrumental (o't yo'llari ultratovush tekshiruvi), statistik

Natijalar tahlili: Tadqiqotimizdagi rekonvalestsent bolalarning o't suyuqligi Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida duodenal zondlash orqali ajratib olindi. Kuzatuv ostiga asosiy guruh sifatida 32 nafar rVGA biliar tizimida (BT) o'zgarishlari bo'lgan rekonvalestsent bolalar, nazorat guruhi sifatida esa biliar tizimida o'zgarishlari bo'lmagan 20 nafar rVGA rekonvalestsent 8-14 yoshgacha bo'lgan bolalar olindi va 3 ta ko'rik (1 oy, 1-3 oy, 3-6 oy) muddatlarida ko'rikdan o'tkazildi.

Tekshiruv natijalari shuni ko'rsatdiki, BT o'zgarishlari bo'lgan rVGA bolalarda 1-ko'rikda og'iz qurishi va achchiq ta'm sezish, holsizlik, gepatomegaliya va o'ng qovurg'a ostida og'riq (78,3%; 65%; 78,3% va 45% mos ravishda) belgilari nazorat guruhidagi bolalarga nisbatan ko'proq foizlarda kuzatildi. 2-ko'rikda esa holsizlik va gepatomegaliya belgilari (46,6% va 40%) boshqa belgilarga nisbatan yuqori foizlarda saqlanib qoldi. Nazorat guruhidagi bolalarda esa yuqorida keltirilgan belgilar umuman aniqlanmadi. 3-ko'rik vaqtida asosiy guruhdagi bolalarda nazorat

guruhidagi bolalarga nisbatan og'iz qurishi va achchiq ta'm sezish, holsizlik va o'ng qovurg'a ostida og'riq (5%; 30% va 15% mos ravishda) belgilari saqlanib qolgan, nazorat guruhida esa hech qanday belgilar kuzatilmadi. Asosiy va nazorat guruhidagi bolalarda yuqoridagi klinik belgilarning uchrash darajasidagi farq statistik jihatdan ishonchli bo'ldi.

O't suyuqligi biokimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash uchun o't suyuqligini kalit komponentlaridan bilirubin, xolesterin va o't kislotalari (O'K), xolatxolesterinli koeffitsienti (XXK) bilan tekshirildi. 32 nafar rVGA asosiy guruh bolalarda nazorat guruhidagi bolalarga nisbatan bilirubinning 2 barobarga ($R < 0,05$), o't kislotalarining 68% kamayishi, xolesterinning 30% gacha oshishi, XXK ning esa 2 barobar kamayishi aniqlandi. Bundan tashqari, asosiy guruh bolalarida nazorat guruhi bolalariga nisbatan o't suyuqligi tarkibida yaqqol o'zgarishlar bo'lishi kuzatildi ($R < 0,05$).

Rekonvalestsent VGA bolalarning o't suyuqligi tarkibidagi o't kislotalari, ya'ni kon'yugirlangan taurin va glitsin xolat kislotalarining 2 barobarga oshishi va kon'yugirlangan deoksi- va xenodeoksixolat kislotalarining 3 barobarga kamayganligi aniqlandi. Sog'lom bolalarda xolat- va deoksixolat kislotalar (dezoksi- va xenodezoksixolat kislota) 1:2,2, rVGA bolalarda 1:0,84 nisbatda bo'lishi aniqlandi, ya'ni gidrofob xolat kislotalarning ko'payganligi kuzatildi.

Tadqiqot natijalari pediatriya amaliyotida VGA o'tkazgan bolalarda SYoK ni erta tashxislash va davolashda qo'llanilishi mumkin. Bu esa, bolalarning hayot sifatini yaxshilashga va asoratlarni oldini olishga yordam beradi.

Ushbu tadqiqot natijasida VGA o'tkazgan bolalarda SYoK rivojlanishining o'ziga xos klinik-laborator belgilari aniqlanadi. Olingan ma'lumotlar asosida VGA o'tkazgan bolalarda SYoK ni erta aniqlash va adekvat davolash strategiyasini ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Amaliy ahamiyati:

Tadqiqot natijalari pediatriya amaliyotida VGA o'tkazgan bolalarda SYoK ni erta tashxislash va davolashda qo'llanilishi mumkin. Bu esa, bolalarning hayot sifatini yaxshilashga va asoratlarni oldini olishga yordam beradi.

Xulosa: rVGA biliar tizimida o'zgarishlari bo'lgan bolalarda rVGA biliar tizimida o'zgarishlari bo'lmagan bolalarga nisbatan rekonvalestsentsiya davri cho'zilgan rekonvalestsentsiya muddatlarida kechishi hamda bilirubin, o't kislotalari, XXK ning kamayishi va xolesterinning ko'payishi bilan namoyon bo'ldi. virusli gepatit A (VGA) - bu jigarining o'tkir yuqumli kasalligi bo'lib, gepatit A virusi (HAV) tomonidan qo'zg'atiladi. Kasallik fekal-oral yo'l bilan yuqadi, ya'ni bemor najasi bilan ifloslangan suv yoki oziq-ovqat orqali sog'lom odamga o'tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Shayqulov H. S., Mamadiyorova M. M. DIAREYA BILAN KASALLANGAN BOLALARDA AJRALUVCHI ICHAK MIKROFLORALARI //GOLDEN BRAIN. – 2023. – T. 1. – №. 6. – C. 20-24.

2. Boboqandova M. F. ERKAK KALAMUSHLARDA JISMONIY ZO‘RIQISHNING TA‘SIRINI ADENOGIPOFIZ, URUG ‘DON VA QON GORMONLARI DARAJASIGA TA‘SIRINI O‘RGANISH //Экономика и социум. – 2025. – №. 2-1 (129). – С. 124-128.
3. Dildora, S., Fazliddinovna, M., Gulnoza, O., & Shohzod, S. (2023). BACILLUS PUMILIS BAKTERIYALARI MIKROBIOLOGIK TAHLILI VA BIOTEXNOLOGIYADAGI AHAMIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 22(2), 154-161.
4. Нуримов П. Б., Бобокандова М. Ф. Особенности развития соматотропной функции гипофиза и надпочечников у мальчиков-подростков //Новый день в медицине,(2). – 2022. – Т. 40.
5. Shodievich S. H., Fazliddinovna B. M. Storage of salmonella, eshirichia and staphylococcus in some dairy products during its storage at different temperatures //World Bulletin of Public Health. – 2023. – Т. 19. – С. 136-141.
6. Boboqandova M. F. JISMONIY ZO‘RIQISHDA REPRODUKTIV TIZIM REAKTIVLIGI //Экономика и социум. – 2025. – №. 2-1 (129). – С. 129-132.
7. Sadullayeva, M., & Boboqandova, M. (2023). CHANGES IN THE LIVER OF RATS WITH COBALT MICROELEMENT DEFICIENCY. *Science and innovation*, 2(D2), 59-63.
8. Кожаметов А. Т., Нуримов П. Б. РОБАСТНАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ СИСТЕМ ПРЯМОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ //ХАБАРШЫСЫ. – С. 5.
9. Абдирашидова, Г. А., Нуримов, П. Б., Махрамкулов, З. М., & Бурханова, Д. С. (2020). ВЗАИМООТНОШЕНИЯ РЕАКТИВНОСТИ ВЕГЕТАТИВНОЙ НЕРВНОЙ СИСТЕМЫ И БАЗОФИЛЬНЫХ КЛЕТОК АДЕНОГИПОФИЗА В ПОСТРЕАНИМАЦИОННОМ ПЕРИОДЕ ПРИ МОДЕЛИРОВАНИИ 10-МИНУТНОЙ КЛИНИЧЕСКОЙ СМЕРТИ. In *АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ БИОМЕДИЦИНЫ-2020* (pp. 207-208).
10. Анваров Ж. А., Нуримов П. Б. Анализ функциональных изменений гипофиза и надпочечников при COVID-19. – 2022.<http://repository.tma.uz/xmlui/handle/1/3270>
11. Нуримов, П. Б., & Анваров, Ж. А. АНАЛИЗ ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ ГИПОФИЗА И НАДПОЧЕЧНИКОВ ПРИ COVID-19. In *International Scientific and Practical conference «COVID-19 and other topical infections of Central Asia» June 23-24, 2022, Shymkent* (p. 112).
12. Nurimov, P. B., & Mamatova, Z. (2025). FUNCTIONAL STATE OF NEUROSECRETORY CELLS IN THE SUPRAOPTIC NUCLEUS OF THE HYPOTHALAMIC-PITUITARY NEUROSECRETORY SYSTEM IN INTACT RATS. *Экономика и социум*, (2-1 (129)), 412-414.
13. Gadaevich, K. A., & Fazliddinovna, B. M. (2022). Morphofunctional State of The Reproductive System in Mature Intact Rats in the Arid Zone. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 3(5), 511-516.
14. Sultonovich, B. K., Abdusalomovna, J. F., Tagirovna, M. Z., & Fazliddinovna, B. M. (2021). Nematodofauna of Retain Plants and Their Seasonal Dynamics. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(4), 5455-5462.

15. Isomov, E., Tashpulatov, Y., Bobokandov, N., Rasulova, Z., Mustanov, S., Bobokandova, M., ... & Nomozova, Z. (2025). Adaptive Anatomical Characteristics of Vegetative Organs in *Cynara* L. Varieties under Different Soil Salinity Conditions. *International Journal of Agriculture and Biosciences*, 14(2), 123-130.